

PEDAGOGLARNING BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDAGI O’RNI VA FAOLIYATI

Arislonova Ra’no

Qarshi Davlat Universiteti Yoshlar bilan ishlash bo’limi tyutori

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda pedagogik jarayonlarda zamonaviy o’qituvchining kasb faoliyati, ma’naviy qiyofasi, dars uslubi hamda ta’lim tizimidagi beqiyos o’zgarish va qulayliklar haqida bayon qilingan.

Kalit so’zlar: Milliy mafkura, milliy tarbiya, tarbiyaviy jarayon, o’qituvchining ma’naviy qiyofasi, pedagogik mahorat, bilim darajalar, metod, shaxs tarbiyasi, ta’lim tizimi, musiqiy tarbiya, qobiliyatlar.

Bugungi kunda jamiyatimizda yoshlar ongida milliy mafkurani rivoj toptirish, ma’naviy fazilatlarini shakllantirish, qadimiy an’analarimiz, milliy boyliklarimizni anglash, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash bularning barchasi ta’lim tarbiya jarayoniga borib taqaladi. Tarbiyaviy jarayon bevosita o’qituvchi murabbiylar orqali amalga oshiriladi. Mustaqil O’zbekistonimizda o’qituvchilarning kasbiy hamda aqliy faoliyatiga alohida bir katta mas’uliyatlar yuklanagan. Ziyoli o’qituvchi qanday bo’lishi kerak? Bu savol doim ko’pchilikning e’tiborida bo’ladi. O’qituvchilar uchun har xil metodik qo’llanmalar, qoidalar fikrlar va darsliklar ishlab chiqildi, zero, bu haqida hozir ham izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Bugungi kunda global o’zgarishlar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining kun sayin rivojlanib borishi hozirgi zamonaviy o’qituvchidan tafakkurli, ziyoli pedagogik-psixologik bilimlarni, o’tkir irodani, o’z fanini mukammal bilishi, pedagogik mahoratni, keng fikrlashni, siyosiy bilimlarni, mulohazali bo’lishni talab qilinadi. Talim-tarbiya jarayonida o’qituvchilar faoliyatida o’qitish shakllarini optimal darajada tashkil etishni, yosh avlodni tarbiyalashning yangi yangi yo’llarini topib, o’z fanini g’oyaviy bilimlar bilan boyitib o’qituvchilariga yetkazib berishi lozim. Umuman olganda shaxsni mukammal inson ruhida tarbiyalash juda murakkab jarayon hisoblanadi. Buning uchun Jamiyatning har bir bo’g’ini ishtirok etadi. Bu holat esa jamiyatimizning barkamol avlod tarbiyasi nihoyatda ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Nafaqat shaxs kamoloti balki jamiyat rivojini belgilashda ahamiyat kasb etadi. Bizning Mustaqil O’zbekistonimizda shaxs tarbiyasi mutlaqo muhim bir o’zgacha ma’no anglatadi. O’qituvchi O’zbekistonning kelajagini bunyod etuvchi mutafakkir-u olimlarning davomchisi bo’lgan kelajak avlodni ta’lim-tarbiyasi uchun muhim mas’ul va javobgar shaxs hisoblanadi.

Ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar birinchi navbatda ta’limning samaradorligi va tarbiyaviyligini oshirishga qaratilganligi e’tiborga

sazovor. Hozirgi innovatsion jarayonlarning jadallashuvi ta'limda, ayniqsa musiqa ta'limida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Bu o'z navbatida musiqa ta'limi tizimini yangi o'quv adabiyotlari, sifatli repertuar, o'qitish metodlari va iqtidorli, qobiliyatli pedagog kadrlar bilan ta'minlashni taqozo etmoqda. Musiqa tarbiyasi shaxsni amaliy musiqiy-estetik faoliyatga undovchi, did, musiqiy qiziqishlar, qobiliyatlarni rivojlantirish orqali musiqiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga yetkazish va ular tomonidan bilimlarni o'zlashtirilishi jarayonidir. Bu jarayonda bevosida musiqa o'qituvchisining faoliyati ahamiyatga molik. Shunday bir muhim vazifa ekanligini har bir Oliy ta'lim bitiruvchilari his qilmog'i lozim. Shaxs tarbiyasiga juda muhim va e'tiborga molik jarayon sifatida qadimdan jamiyatning yetuk namoyondalari fikrlar qoldirishgan. Ayniqsa, musiqa ta'limida estetik tarbiya berish asosiy talablardan biri sanaladi. Musiqa san'ati bu - go'zallik va nafosatni musiqa tinglash orqali his etishdir.

Musiqa darslarining eng asosiy jihatlaridan biri ham tinglangan musiqani idrok qilishga, uni mazmuniga e'tibor qaratib tahlil qilishni o'rgatishga yo'naltirilgan. Bu jarayonlar amalga oshishi uchun musiqaning barcha faoliyatlari ya'ni musiqa tinglash, musiqa savodi, jamoa bo'lib kuylash va musiqa ijodkorligi kabi faoliyatlar asosida yaraladi. Musiqiy tarbiya berish musiqa o'qituvchidan o'z kasbiga mahorat va puxta bilim egasi bo'lishni talab etadi. Musiqa madaniyati o'qituvchisi eng avvalo tajribali notiq, mas'uliyatni his etuvchiva ma'rifat targ'ibotchisidir. Jamiyatda ro'y berayotgan ilmiy fan-texnika yangiliklari hamda zamonaviy axborot kommunikatsiyalardan xabardor bo'lishi, muntazam ravishda o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimlarni o'zlashtirgan va yana izlanishda bo'lishi, pedagogika va psixologiya fanlarini mukammal bilishi, ta'lim tarbiyaning eng zamonaviy metod va usullaridan foydalanishi, o'quvchi-yoshlarni yaxshi ko'rishi, har bir darsiga mas'uliyat bilan yondashishi kerak. Bu o'z navbatida musiqa madaniyati o'qituvchisidan qolaversa boshqa fan o'qituvchilaridan ham juda kata mas'uliyat va e'tibor talab qilinadi. Musiqa fani o'qituvchisi darslarni Davlat Ta'lim Standartlari asosida olib borishi lozim. Musiqa o'qitish va tarbiyalashda o'quvchilarni orasidagi o'zaro interaktiv harakatni tashkil etib, musiqiy faoliyat orqali bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtiriladi hamda musiqiy-estetik qarashlar rivojlantiriladi. Mumtoz pedagogikada o'qitish va tarbiyalash kategoriyasi ma'lum o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shuning uchun musiqa o'qitish va tarbiyalashda texnologik yondashuv asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonning yaxlit ijodiy xarakteri bilan shartlangan holda dars mashg'ulotlarini olib borish lozim. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi o'quvchilarning musiqaiy qobiliyatlarini ham rivojlantirishi kerak. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish bu - o'quvchilarga musiqa ta'lim va tarbiyasi berish va o'rgatish jarayonida ularni har tomonlama musiqiy bilimlar va savodxonlik bilan qurollantirish, musiqa san'atining rivojlanish bosqichlari bilan tanishtirish, Vatanimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yosh ijrochi mutaxassislarni

tayyorlash, bu borada amalga oshiriladigan kompleks ishlar va chora-tadbirlar tushuniladi. Musiqa tarbiyasi va ta’limi bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi mavjud musiqiy qobiliyatlar va qiziqishlar darajasi yuzasidan ma’lum tasavvurlar orqali amalga oshiriladi. Boshqa kasblardan farqli tarzda musiqiy faoliyatlar bilan shug’ullanish, bu yo’nalishda ma’lum muvaffaqiyatlarga erishish uchun alohida e’tiborli tarzda shug’illanish tavsiya etiladi. Buning uchun esa musiqa fani o’qituvchilaridan alohida pedagogik mahorat talab etiladi. Qadimdan Abu Nasr Farobiy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayxon Beruniy, Sa’diy Sheroziy, Husayin voiz Koshifiy kabi faylasuf va olimlarimiz o’z asarlarida o’qituvchilik kasbining nihoyatda murakkab va o’ta mas’uliyatli kasb ekanligi hamda pedagogik mahoratning qanchalik muhimligi, o’qituvchi qanday shaxs bo’lmog’i lozimligi haqida o’zlarining asarlarida so’z yuritadilar.

Pedagogik mahorat bu ta’lim-tarbiya jarayonini mustaqil tashkil etuvchi, ijodiy yondashuv asosida o’z erishgan bilimlarni samarali qo’llay oluvchi, yuksak tafakkurga ega bo’lishi, o’tmish qadriyatlarini, dars jarayonini mustaqil tashkil etuvchi, o’quvchilarni har biri bilan shug’ullanishdan tarkib topadi. Pedagogik mahoratga ega bo’lish o’qituvchining obro’ e’tiborini oshiradi, darsdagi ta’lim tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minlovchi hamda o’qituvchining o’quvchilar orasida hurmatni yuzaga keltiradi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik jarayonni naqadar muhimligini qisqacha qilib aytdik. Hozirgi vaqtda, fan va madaniyatning eng so’nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo’lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va usullarini izlash nihoyatda zarurdir. O’qituvchi shaxsining harakatlari mimikasi bilimi, tajribasi ta’lim jarayonini qamrab uni bilan bir butunlikni hosil qilsagina o’quvchi ongiga yetib boradi. Vatan ravnaqi uchun har bir pedagog o’qituvchi o’zida bor bilim saviyani yosh avlod ta’lim tarbiyasi uchun safarbar etmog’i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sh.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma’kamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so’zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11
2. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent “O’zbekiston” – 2017 y.
3. Ibrohimov O. A. O’zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar). – T.: 1994
4. Musabekova S.I. Musiqa tarbiyasi. – T.: “O’qituvchi”, 1973
5. Soipova. D. “Musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasi” T.2009.
6. www. Ziyonet.uz.